

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-sentabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021 - yil xolatiga, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **25,4** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,8 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



191



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 032




Ishlab chiqarish sanoati

42



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

57



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 322 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,8 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 24,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 7,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 13,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 42,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,4 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




10,6 foizga oshdi




Mikrofirkmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida




- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 488 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 11,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 25,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 4,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,5 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 451 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,9 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 30,4 % ga (jami savdodagi ulushi 70,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 21,0 % ga (jami savdodagi ulushi 21,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 25,7 % ga (jami savdodagi ulushi 8,0 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

401



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

15




• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,4 foizga oshdi**






Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



18,3 foizga oshdi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




103
yashash bo'yicha xizmatlar




1 315
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 418 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 18,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 19,8% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 1 969 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 432 ga yoki 28,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 895 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 434 ga yoki 29,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 374 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,5 % ga tashkil etdi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 15 525 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 194 ga yoki 25,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 930 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 102 taga yoki 26,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 652 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 620 taga yoki 30,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 179 tani tashkil etib, ulardan 178 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 14 taga yoki 8,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 19 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	178	112	66
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	12	5	7
Bo'zatov	5	5	0
Qorao'zak	12	9	3
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'iro't	8	6	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	37	27	10
Nukus	10	5	5
Taxiatosh	10	4	6
Taxtakopir	4	3	1
To'rtko'l	6	5	1
Xo'jayli	4	2	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	5	4	1
Nukus sh.	38	22	16

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 38 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 21,3 %), Mo'ynoq 37 ta (20,8 %), Beruniy va Qorao'zak 12 ta (6,7%), Taxiato'sh va Nukus tumani 10 ta (5,6 %), Qo'ng'iro't 8 ta (4,5 %), Amudaryo, Kegeyli, Qonliko'l va To'rtko'l tumanlarida 6 tani (3,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,3 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,4 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'iroq (5,6 %), Xo'jayli (5,2 %), Nukus (4,4 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,1 %), Kegeylida va Qorao'zakda (2,9 %), Qonliqo'l va Mo'ynoqda (2,7 %), Shumanay tumani (2,6 %), Taxtakopir (1,9 %) va Bo'zatov (1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar - sentabr oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,3 %), To'rtko'l va Beruniyda (8,8 %), Amudaryo (7,4 %), Ellikqal'a (6,4 %), Xo'jayli (6,0%), Qo'ng'iroq (4,6%), Chimboy (4,3 %), Nukus (4,1 %), Mo'ynoqda (4,0 %), Kegeyli (3,3 %), Qonliqo'l (3,2 %), Taxiatosh (3,1 %), Shumanay (2,9 %), Qorao'zak (2,7 %), Bo'zatov (2,6 %), Taxtakopir (2,5 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,3 %), To'rtko'l (10,8 %), Beruniy (7,5 %), Amudaryo tumani (6,7 %), Nukus va Xo'jaylida (5,2 %), Qo'ng'iro't (5,1 %), Ellikqal'a (4,2 %), Chimboy (4,1 %), Qorao'zak (3,2 %), Mo'ynoq (3,1 %), Kegeyli (3,0 %), Taxiatosh tumani (2,4 %), Bo'zatov, Qonliko'l va Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,1%) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09